



OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING MEHNAT BOZORIGA BITIRUVCHILARNI TAYYORLASHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI

dots. **Saloxitdinov Sherzod**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

ORCID: 0009-0001-1072-7452

saloxitdinov.sherzod@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining mehnat bozori uchun malakali mutaxassislar tayyorlashini tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga soluvchi institutsional mexanizmlar keng qamrovda o'rganilgan. Tahlil asosida bitiruvchilarning ish bilan bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va ularni oshirish borasida amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, oliy ta'lim, kadrlar sifati, ta'lim xizmatlari, baholash mexanizmlari, inson kapitali, tashqi muhit, raqobatbardoshlik, institutsional asoslar.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ ВЫПУСКНИКОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ К РЫНКУ ТРУДА

доц. **Салохитдинов Шерзод**

Джизакский филиал Национального
университета Узбекистана

Аннотация. В данном исследовании всесторонне изучены институциональные механизмы, регулирующие в организационно-правовом аспекте подготовку квалифицированных специалистов высшими образовательными учреждениями для рынка труда. На основе проведенного анализа выявлены факторы, влияющие на уровень занятости выпускников, а также разработаны практические рекомендации по его повышению.

Ключевые слова: рынок труда, высшее образование, качество кадров, образовательные услуги, механизмы оценки, человеческий капитал, внешняя среда, конкурентоспособность, институциональные основы.

INSTITUTIONAL MECHANISMS OF PREPARING GRADUATES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS FOR THE LABOR MARKET

assoc. prof. **Saloxitdinov Sherzod**

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan

Abstract. This study comprehensively examines the institutional mechanisms that regulate, from an organizational and legal perspective, the preparation of qualified specialists by higher education institutions for the labor market. Based on the analysis, the factors influencing the employment level of graduates are identified, and practical recommendations for improving it are developed.

Keywords: labor market, higher education, quality of human resources, educational services, assessment mechanisms, human capital, external environment, competitiveness, institutional foundations.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni mehnat bozori talablariga moslashtirish masalalari davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda yuridik asos vazifasini bir qator muhim hujjatlar bajarmoqda: xususan, Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi «Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, shuningdek, 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-sonli qaror va davlat-xususiy sheriklikka oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Ushbu me'yoriy baza nafaqat ta'lim sifatini ta'minlash, balki mehnat bozoridagi talab va taklif nisbatini monitoring qilish hamda kadrlar buyurtmasini shakllantirish uchun ham poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisobotiga muvofiq, jahon miqyosidagi band yoshlarning taxminan 13 foizi kuniga 1,9 AQSH dollaridan kam ish haqi oluvchi past narxli ish o'rinlarida ishlamoqda (Global Employment Trends for Youth 2020, 2020). Bu vaziyat zamonaviy mehnat bozorida to'liq raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning global ahamiyatini alohida ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon ta'lim xizmatlari bozorining hajmi 100 mlrd AQSH dollaridan oshib ketgan bo'lib, «inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 70 foizga, o'rta daromadli davlatlarda 58 foizga, quyi daromadli mamlakatlarda esa 41 foizga teng Xatolik haqida xabar berish¹. Ushbu raqamlar ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi strategik rolini xalqaro miqyosda tasdiqlaydi. Oliy ta'lim boshqaruv tizimidagi transformatsiyalar ko'pincha texnologik o'zgarishlar, global jarayonlar va «yumshoq kuch» ta'sirining kuchayishi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning bosh mezoni sifatida ko'rilmogda. Maksimovanning (2005) ta'kidlashicha, bitiruvchi raqobatbardoshligi — bu uning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar majmuini namoyon eta oladigan, jamiyatda samarali faoliyat yuritishiga asos bo'ladigan integrativ sifatidir.

Mamlakatimizda ta'lim islohotlari doirasida «yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish, zamonaviy ta'lim yo'nalishlarini ochish, sirtqi va kechki bo'limlar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda qabul kvotalarini oshirish» kabi strategik qadamlar amalga oshirilgan (Qaror, 2018).

Mahalliy olim Jumayev (2016) fikriga ko'ra, ta'lim sifati masalasi hozirda ish beruvchilar, talabalar, ota-onalar va umuman jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi, ammo «ta'lim sifati» tushunchasiga yagona konseptual yondashuv hali to'la shakllanmagani bahslarni murakkablashtirmogda.

Akademiklar Gulyamov va Abduraxmonovlarning (2004) ilmiy asarlarida ta'kidlanishicha, oliy ta'limning iqtisodiy samarasi turli shakllarda — naqd va naqd bo'lmagan, bevosita va bilvosita ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Mutaxassis qancha yuksak ta'lim olsa, shuncha nufuzli lavozimda ishlashi, yuqori ish haqi olishi va yangiliklarga tezda moslashishi mumkin.

Abduraxmonov (2005) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari bilan kuchli bog'liqlikda turadi, va aynan ta'lim faoliyati iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor komponentiga aylanib bormogda.

Ergashxodjaye va Nishonov (2010) ta'kidlaganidek, ta'lim bugun faqat mutaxassis tayyorlash vositasi emas, balki jamiyatning intellektual va innovatsion salohiyatini mustahkamlovchi, zamonaviy hayot tarzini shakllantiruvchi kuch sifatida tan olinmogda.

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly>; <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

Muxtarovning (2001) tahlillariga ko'ra, davlat siyosatining inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan qismi mamlakat aholisining turmush sifatini yaxshilashda bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar majmuini umumlashtirib, oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash metodologiyasini yangilash, mezonlarni takomillashtirish va ish beruvchilarning talablarini ta'lim standartlariga singdirish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlashni institutsional jihatdan tartibga solish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda mantiqiy tahlil va qiyosiy baholash usullari, tizimli va situatsion yondashuvlar, tahlil-sintez metodlari, kompleks ekspertiza hamda sotsiologik tadqiqot texnikalaridan kompleks tarzda foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashning strategik maqsadi — oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yangi texnologik ehtiyojlarga javob beradigan ijodkor kadrlarni yetishtirishdan iborat. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, 10 «xalqaro mehnat bozori talablariga mos milliy malaka tizimi 9 mingga yaqin kasb bo'yicha kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi» va maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50-60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Boshqaruv tizimi uchun ahamiyatli bo'lgan uch asosiy tendensiya qayd etiladi:

1. Iqtisodiy o'sishning asosi sifatida inson kapitalini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining rolini muntazam kuchaytirib borish zarurati.

2. O'zgarib boruvchi ish bozori shartlariga moslashuv uchun uzluksiz va umrbod ta'lim olishga ehtiyojning ortishi.

3. Iste'dodli yoshlarni jalb qilish uchun ta'lim muassasalari, korporatsiyalar va mamlakatlar o'rtasidagi raqobat keskinlashuvi (Umarova, 2021).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi xususiyatlar uch funksional guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh — kasbiy tayyorgarlik asoslari:

Ta'lim dasturining to'liqligi, o'zlashtirish darajasi, sertifikatlar va diplomlar — bularning barchasi raqobatbardoshlikning poydevor elementlarini tashkil etadi.

Ikkinchi guruh — shaxsiy va professional salohiyat:

Bitiruvchining ambitsiyalari, o'zini baholash qobiliyati, tashabbuskorlik va kasbiy rivojlanishga intilish darajasi.

Uchinchi guruh — mehnat bozorida strategik pozitsiya:

Karyera rejalashtirishi, ishga joylashish maqsadidagi ongli xatti-harakatlar va shaxsiy marketing salohiyati.

Konoplyanskiyning (2015) tadqiqotlari ko'rsatishicha, bitiruvchi raqobatbardoshligiga ta'sir etadigan omillar ikki yirik kategoriyaga — tashqi va ichki omillarga bo'linadi (1-jadval):

Shu bilan birga, har bir bitiruvchi o'ziga bog'liq ikki muhim omilni ham e'tiborda tutishi zarur:

Birinchi omil — tadbirkorlik-strategik xatti-harakatlar:

Mehnat bozorida maqsadli pozitsiya egallashga yo'naltirilgan individual ustunliklarni namoyon etish, kasbiy harakatchanlik, ishchanlik va yetakchilik sifatlarini rivojlantirish.

Ikkinchi omil — ta'lim jarayonidagi joriy faoliyat:

Belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun o'quv dasturini jadal o'zlashtirish, o'z-o'zini rejalashtirish va muntazam monitoring.

Bitiruvchi raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar

Omil turi	Mazmun va tashkil etuvchilar
Tashqi omillar	Institutsional muhit (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, demografik, texnologik jihatlar). Mehnat bozoridagi talab-taklif nisbati. Davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy hamkorlik va strategik ittifoqlar asosida real ishlab chiqarish sektori bilan aloqalar. Oliy ta'lim muassasasining institutsional mustaqilligi.
Ichki omillar	Oliy ta'lim muassasasining innovatsion va investitsion faollik darajasi. Tashqi o'zgarishlarga moslashish qobiliyati. Muassasaning brend qiymati, obro'si va raqobatli pozitsiyasi. Bitiruvchilar uchun aniq belgilangan pedagogik strategiyaning mavjudligi.

Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi №5847-sonli farmonida oliy ta'limni tizimli isloh qilish, mustaqil fikrlaydigan, yuqori ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega malakali kadrlar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga ko'tarish vazifalari belgilangan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishning ko'rsatkichi sifatida respublika miqyosida bitirgan mutaxassislar sonini kuzatish lozim (2-jadval):

Hududlarda oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar sonining o'zgarishi (ming kishi)

Hududlar	2018/ 19	2019/ 20	2020/ 21	2021/ 22	2022/ 23	2023/ 24	2024/ 25	O'sish, %
Qoraqalpog'iston R.	4,5	4,3	5,5	6,5	7,2	7,9	8,7	1,4
Andijon	4,8	4,3	4,6	6,4	7,1	7,9	8,8	1,3
Buxoro	3,5	3,8	4,8	6,2	7,1	8,1	9,2	1,8
Jizzax	2,9	2,9	3,9	3,6	4,1	4,5	5	1,2
Qashqadaryo	3,8	3,9	5,2	5,9	6,8	7,7	8,7	1,6
Navoiy	2,3	2,4	3,1	3,9	4,5	5,1	5,8	1,7
Namangan	3	3,2	4,1	5,5	6,3	7,1	8	1,8
Samarqand	6,9	6,8	7,2	8,5	9,6	10,7	11,9	1,2
Sirdaryo	1	1	1,6	2,2	2,6	3	3,4	2,2
Surxondaryo	2	2,1	3,3	3,6	4,2	4,8	5,5	1,8
Toshkent viloyati	2,7	2,8	4,1	3,7	4,4	5	5,7	1,4
Farg'ona	4,6	4,8	5,8	9,3	10,5	11,8	13,2	2,0
Xorazm	2,2	2,4	3,2	4,2	4,8	5,5	6,2	1,9
Toshkent shahri	26,1	26,1	27,5	34,4	38,2	42,3	46,8	1,3
Respublika jami	70,3	70,8	83,9	103,9	117,4	130,9	146,9	1,5

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha OTM bitiruvchilari soni 2018/19 o'quv yilida 70,3 ming nafardan 2024/25 yilga borib 146,9 ming nafarni tashkil etishi kutilmoqda — ya'ni bu ko'rsatkich taxminan 2,1 barobarga oshishi prognoz qilinmoqda.

Amalda esa 2021/22 o'quv yilida bitiruvchilar soni allaqachon 103,9 ming nafarni tashkil etib, 2018/19 yilga nisbatan 1,5 barobarga o'sgan. Jizzax viloyatida ushbu ko'rsatkich 2018/19 yildagi 2,9 ming nafardan 2024/25 yilga borib 5,0 ming nafarga yetishi kutilib, 1,2 barobar o'sish tendensiyasi mustahkam davom etmoqda.

Eng yuqori mutlaq o'sish sur'ati Farg'ona viloyatida qayd etilgan: 4,6 ming nafardan 13,2 ming nafarga — ya'ni 2,0 barobarga ko'paygan. Sirdaryo viloyati esa nisbiy o'sish bo'yicha lider bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2,2 barobarni tashkil etdi. Toshkent shahri mutlaq raqamlar bo'yicha alohida ajralib turadi: 26,1 ming nafardan 46,8 ming nafarga qadar o'sish kuzatilmoqda, biroq o'sish sur'ati jihatidan (1,3 barobar) hududlar orasida nisbatan past ko'rsatkichlardan birini namoyish etadi.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim imkoniyatlari kengayishiga nodavlat va xususiy OTMLar sonining muntazam ortib borishi ham sezilarli hissa qo'shmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga ko'ra, OTMLar sonini 200 taga va qamrov darajasini 50 foizga etkazish vazifasi ushbu o'sish dinamikasini yanada jadallashtirishi kutilmoqda. Shuningdek, mazkur jarayonda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini kengaytirish va ta'lim sifatini mehnat bozori talablariga moslashtirish borasidagi institutsional islohotlar muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi:

1. OTM bitiruvchilarining raqobatbardoshligini uch o'lchamda baholash tizimini joriy etish: (a) kasbiy tayyorgarlik va diplomlar, (b) shaxsiy ambitsiyalar va moslashuv qobiliyati, (v) mehnat bozoridagi strategik pozitsiya va marketing salohiyati. Ushbu o'lchamlarning kompleks monitoringi ta'lim sifatini boshqarishda tizimli asosni tashkil etadi.

2. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlardan kelib chiqib ta'lim yo'nalishlarini moslashtirish va fan-ta'lim-ishlab chiqarish tripartizmini mustahkamlash zarur. Raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchilarni o'quv reja tuzishga jalb qilish samaradorlikni sezilarli oshirishi mumkin.

3. Oliy ta'lim boshqaruvini modernizatsiya qilish chog'ida rahbar kadrlarga qo'yiladigan standart va talablarni yangilash, ularning moliyaviy-iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va inklyuziv ta'lim kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish tizimini yo'lga qo'yish OTMLar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar / *Литература* / Reference:

Abduraxmonov O. (2005) *Mehnat bozorini boshqarishda ta'lim tizimining o'rni. I.f.n. diss. – Toshkent, 30 b.*

Ergashxodjayeva Sh.D., Nishonov D.Sh. (2010) *Zamonaviy iqtisodiyot va innovatsiya ta'limi // O'zbekistonda bojxona ishining dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot. Toshkent, 197–198 b.*

Global Employment Trends for Youth 2020: (2020) Technology and the future of jobs. International Labour Office – Geneva: ILO.

Jumayev Z.T. (2016) *Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Journal of «Irrigation and melioration» №4(6). -73 b.*

Mirziyoyev Sh.M. (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi», 2020 yil 25 yanvar. www.press-service.uz*

Qaror (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori.*

Umarova X.U. (2021) Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning konseptual asoslari. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» jurnali. №5, <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. (2004) Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Ташкент. – 34-35 с.

Коноплянский Д.А. (2015) Формирование конкурентоспособности выпускника ВУЗа в процессе обучения: роль государственно-частного партнёрства. Вестник КемГУКИ 33. - 179 с.

Максимова Е.В. (2005) Развитие конкурентоспособности студента в образовательном процессе университета: автореф.дис. ...канд.пед.наук. Оренбург, 14-16 с.

Мухтарова К.С. (2001) Распределение доходов и бедность в переходной экономике. – Алматы, – 223 с.